



PARLAMENT VA HISOB PALATASINING MOLIVAVIY NAZORAT SOHASIDAGI VAZIFALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ochilova Zilola Joxan qizi

Magistranti

Moliyaviy-huquqiy monitoring fakulteti

Toshkent davlat yuridik universiteti

ochilovazilola13@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10225538>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 25- November 2023 yil

Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

KEY WORDS

parlament, Hisob palatasi, moliyaviy nazorat, davlat budjeti, rasmiy bo'ysunish, funksional mustaqillik, siyosiy iroda, audit.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlatning moliyaviy nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi Hisob palatasi va parlamentning moliyaviy nazorat sohasidagi vakolatlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan bo'lib, moliyaviy nazorat funksiyasini amalga oshirishda vujudga kelayotgan ayrim muammolar va ularning yechimlariga atroflicha muhokama qilingan.

Parlament va Hisob palatasining moliyaviy nazorat sohasidagi vakolatlarining va vazifalarining o'zaro nisbatini tahlil qiladigan bo'lsak, Oliy Majlis parlament nazoratini amalga oshiruvchi organ sifatida har yilgi davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini qabul qiladi va davlat budjetining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Hisob palatasi esa davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari loyihasining, shuningdek mahalliy budjetlar loyihalarining shakllantirilishini ularning ko'rsatkichlari asosligini aniqlash, ularning daromadlarini prognoz qilish hamda xarajatlarini rejalashtirish, qarz siyosati va budjetlararo munosabatlarning sifatiga baho berish maqsadida o'rganishni va tahlil qilishni amalga oshiradi. Mamlakat moliyasini samarali rejalashtirish va ijrosini ta'minlash muhim masala hisoblanadi, bu o'z o'rnida moliyaviy nazorat tizimini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Fikrimizning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan 60-sonli **"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"**gi Farmonida ham davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish masalalari o'z aksini topganligini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra, "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"ga mo'ljallangan davlat dasturida davlat budjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar qatorida belgilab qo'yilgan.

Metodlari: mazkur ilmiy maqolada umumijtimoiy, maxsus va huquqiy metodlardan foydalanildi, xususan, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, empirik, qiyosiy-huquqiy uslublar qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Parlament va Hisob palatasining davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini qabul qilish jarayonidagi ishtirokiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasi joriy yilning 15-oktabridan kechiktirmay Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga Hisob

palatasining xulosasi bilan kiritilishi lozim. Lekin amaliyotda ushbu normaning ishlayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yaqin uch-to'rt yillik davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasi o'tgan 2022-yilda 17-dekabrda, 2019-yilda 9-noyabr, 2020-yilda 13-noyabrda, 2024-yilga mo'ljallangan davlat budjeti uchun esa joriy yilning 1-noyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan parlamentga muhokama kiritilganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. O'z navbatida muhokamaning kechiktirilganligini davlat budjetining tasdiqlanishini kechiktirib yuboradi, bu esa mahalliy budjetlarning ham muddatidan kech qabul qilinishiga olib keladi.

Hisob palatasi va parlament o'rtasidagi munosabatlarni tahlilida ushbu munosabatlarning bir qancha o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanishini ko'rishimiz mumkin.

➤ *Rasmiy bo'ysunish:* Hisob palatasi rasmiy ravishda parlament oldida hisobdor, ya'ni u o'z faoliyatining natijalari haqida parlamentga hisobot beradi.

➤ *Funksional mustaqillik:* Parlamentga rasman hisobdorligiga qaramay, Hisob palatasi o'z tekshiruvlari amalga oshirishda funksional mustaqillikka ega. Bu mustaqillik Hisob palatasi davlat xarajatlarining qonuniyligi va samaradorligini xolisona baholay olishi uchun zarurdir.

➤ *Hamkorlik:* Hisob palatasi va parlament o'rtasida yaqin hamkorlik aloqalari mavjud bo'lib, ular axborot almashishadi va nazorat faoliyati bo'yicha hamkorlik qilishadi. Bu hamkorlik parlament hukumatni javobgarlikka tortish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash uchun zarur.

Hisob palatasi va parlament o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy tomonlariga qaramay, hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

Moliyalashning yetarli emasligi: Hisob palatasi yetarli darajada moliyalashtirilmagan, bu esa uning audit va tekshiruvlarni samarali o'tkazish imkoniyatlarini cheklaydi.

Axborotga kirishning cheklanganligi: Hisob palatasi ba'zan audit va tergov o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga kirishda qiynaladi. Bunga qator omillar, jumladan, davlat organlarining qarshilik ko'rsatishi va davlat organlari tomonidan Hisob palatasiga ma'lumot taqdim etish bo'yicha aniq qonuniy talablarning yo'qligi sabab bo'lmoqda.

Siyosiy irodaning yo'qligi: Parlament ba'zan hukumatni javobgarlikka tortishni istamaydi, hatto Hisob palatasi qonunbuzarlik dalillarini aniqlagan bo'lsa ham. Bunga qator omillar, jumladan, parlamentdagi ayrim deputatlar va hukumat o'rtasidagi yaqin munosabatlar, hukumat obro'siga putur yetkazishdan qo'rqish sabab bo'lmoqda.

Hisob palatasini moliyalashtirishni ko'paytirish: Audit va tekshiruvlarni samarali o'tkazish uchun Hisob palatasi yetarli darajada moliyalashtirilishi kerak. Buni Hisob palatasining budjetini ko'paytirish yoki uni alohida moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash orqali amalga oshirish mumkin. Hisob palatasining axborotdan foydalanish imkoniyatini kuchaytirish: Hisob palatasi audit va tekshiruvlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun aniq qonuniy vakolatlarini belgilash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy Majlis parlament nazoratini amalga oshirish shakli sifatida davlat budjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, bundan tashqari davlat budjetini ham tasdiqlaydi. Ammo parlamentning bu funksiyasini amalga oshirishda ayrim muammolarga duch kelishini ko'rishimiz mumkin, jumladan, davlat budjeti loyihasi har yili ham muhokama uchun hukumat tomonidan o'z vaqtida parlamentga kiritilmaydi, ushbu holatda O'zbekiston Respublikasining budjet kodeksida budjet talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilab

qo'yilgan. Lekin ushbu huquqbuzarlik uchun javob beradigan aniq shaxs yoki organ Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ko'rsatilmagan. Bu esa o'z navbatida kimga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi degan savolni keltirib chiqaradi. Hukumatga nisbatan javobgarlik qo'llanilsa, buni kim tomonidan qo'llanilishi ham so'roq ostida, ya'ni bevosita hukumatga tarkibidagi Moliya va iqtisodiyot vazirligining moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi inspeksiyasi amalga oshiradimi? Ushbu masalaga yechim sifatida Hisob palatasiga davlat budjeti loyihasining kechiktirilishi holatlarida hukumatga nisbatan javobgarlikni qo'llash vakolatini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi 01.01.2014. <https://www.lex.uz/docs/-2304138>
3. O'zbekiston Respublikasining "Hisob palatasi to'g'risida"gi qonuni 01.09.2019. <https://lex.uz/docs/-4394324>
4. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonuni 12.04.2013. <https://lex.uz/docs/-2929477>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 29.01.2022. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
6. <https://lex.uz>
7. <https://library-tsul.uz>;
8. <https://www.norma.uz>;
9. <https://www.gazeta.uz>

INNOVATIVE
ACADEMY